

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-9

SAMARQANDDA TEMURIYLAR DAVRIDA BUNYOD ETILGAN ME'MORIY OBIDALAR.

Mamatkulova Shaxnoza Raxmonkulovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sohibqiron Amir Temur va uning vorislari davrida bunyod etilgan inshootlar, ularning qurilish jarayoniga guvoh bo'lgan mualliflar va keying davrlarda temuriylar davri tarixiy yodgorliklarini o'rgangan tadqiqotchilarining asarlari, fikr hamda mulohazalari tahlili to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar va iboralar: Amir Temur, temuriylar, Samarqand, Bibixonim, Saroy Mulk Xonim, Shoxi Zinda, Go'ri Amir, Ruxobod, Cho'pon ota, jom'e masjidi, koshin, maqbara.

ПАМЯТНИКИ АРХИТЕКТУРЫ, ПОСТРОЕННЫЕ В ПЕРИОД ТЕМУРИДОВ В САМАРКАНДЕ.

Аннотация: В данной статье рассказывается о сооружениях построенных в эпоху Сарабкирона Амира Темура и его преемников, анализу работ, мнений и комментариям авторам которые были свидетелями их строительства и изучавшим исторические памятники тимуридского периода в последующие периоды.

Ключевые слова и фразы: Амир Темур, Тимуриды, Самарканда, Биби-Ханым, Сарай-Мульк-Ханым, Шахи-Зинда, Гори-Амир, Рухабад, Чупан ата, соборная мечеть изразец, мавзолей.

ARCHITECTURAL MONUMENTS ESTABLISHED DURING THE PERIOD OF TEMURIS IN SAMARKAND.

Abstract: This article is about the analysis of the constructions built during the era of Sahibqiron Amir Temur and his successors, the authors who witnessed their construction process and the researchers who studied the historical monuments of the Timurid period in the following periods, opinions and comments.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-9

Key words and phrases: Amir Temur, Timurid, Samarkand, Bibi-Khanym, Saray-Mulk-Khanym, Shakhi-Zinda, Gori-Amir, Rukhabad, Chupan ata, mosque, tile, mausoleum.

Kirish.O'rta Osiyo me'morlchigining oltin asri sifatida Amir Temur va uning avlodlari davrini ko'rsatish mumkin. Temur va temuriylar davrida qurilish ishlari, me'morchilik misli ko'rilmagan darajada rivojlanadi. Amir Temur, uning avlodlari mashxur imoratlar, masjid va maqbaralar, ulkan bog'u-rog'lar, suv inshootlari barpo etirganligi bilan ham mashxurdirlar.

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi.Maqolada Amir Temur davri bunyodkorlik ishlari guvohi bo'lган Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshox, Klavixo, XIX asr oxiri va XX asrlarda faoliyat olib borgan sharqshunoslar hamda O'zbekiston Milliy arxiv fondlari materiallaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi.Maqola tayyorlashda tahliliy, tanqidiy va bayon etish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Temur va temuriylar o'z saltanatida masjid, madrasa, saroylar bunyod ettirish bilan bir qatorda musulmonlar uchun muqaddas qadamjolarni obodonlashtirish ishlariga ham katta e'tibor qaratishgan.

Shunday muqaddas joylardan diqqatga sazavori, qadimiyrog'i bu Shoxi-Zinda maqbarasi va uning atrofida qurilgan yodgorliklar majmuasidir. Samarqanddagi aziz insonlar dafn etilgan Shohi Zinda-“Tirik shox,” maqbaralar majmuasi shaxarning janubiy qismida joylashgan bo'lib, musulmonlarning muqaddas ziyyoratgoxlaridan biridir. [15:30]

Shohi Zinda nomi Muhammad (sav) payg'ambarning amakivachchalari Qusam ibn Abbos nomi bilan bog'liq. Qusam ibn Abbosning Samarqandda shahid bo'lganligi Abu Toxirxo'janing “Samariya” asarida aytib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra Qusam ibn Abbos Xuroson hokimi etib tayinlangan Sa'id bin Usmon bilan Movorounnahrga keldi. Said bin Usmon harakatlari bilan Samarqand aholisi musulmon qilindi. Hijriy 56 yildagi jangda Qusam xalok bo'lganligi, Banu Nojiya qabristonida g'or yonida ko'milganligi ta'kidlangan [2:29].

Turkiston tashrif buyurgan S. Gramenskiy va V. Oshaninlar Shohizinda maqbarasi haqida shunga o'xshash ma'lumot qoldirishgan. Ular mahalliy aholi tomonidan aytilgan rivoyatlarga tayanib, Qusam ibn abbos hozirgacha tirik, maqbara ichida yashaydi, shu sababdan Amir Temur bu tabarruk zot uchun qurdirgan maqbarasi

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-9

“Shohizinda” ya’ni “Tirik shoh” deya nomlangan, deya esdaliklarida qayd etishgan [5:1016].

Tarix va afsona ana shu tariqa bir-bir bilan uyg‘unlashib ketgan.

Amir Temur hokimiyatga kelgach Shohizinda majmuasi me’morchiligidagi ham katta o‘zgarishlar bo’ldi. Amir Temur bu yerdagiga ko‘pgina, xarobaga aylangan inshootlarning o‘rniga yangisini qurdi, ko‘plarini qayta ta’mirladi, Qusam ibn Abbas qabri ustiga hashamatli qabrtosh o‘rnattirdi. Shuningdek, sohibqironning buyrug‘i bilan bu yerda yangi masjid ham barpo qilindi. Shohizinda me’morchilik majmuasi turli davrlarda xukmdorlar hukmdorlar va amaldorlar tomonidan barpo qilingan maqbaralar, masjid va madrasalardan iborat murakkab yodgorlik ekanligini ta’kidlab o’tish joizdir.

Arxeologik tadqiqotlar natijasiga ko’ra Qusam ibn Abbas maqbarasi XI asrda qurilgan. XI-XII asrlarda uning yaqinida Tamg‘achxon madrasasi va yana ikkita maqbara bunyod etilgan. XIII asrda bu binolar mo’g’ullar tomonidan vayron qilingan, ammo ilohiy bo’lgan asosiy ziyoratgohni buzishga qo’rqishadi. 1331 yilda ziyorathonada qayta tiklandi. 1360-yilda uning yonida bir nechta maqbaralar qurilgan. Ammo Shoxi-Zinda majmuasining asosiy bunyodkorlik ishlari Amir Temur davrida amalga oshirilgan. XIV asrning 70-80 yillarida asosiy ziyoratgohdan pastga qadimiy Afrosiyobning qal’a devorlarigacha cho’zilgan yo’lak bo’ylab maqbaralar quriladi. Ularning hammasi bir honali, peshtoqli gumbazli ko’rinishga ega bo’lgan [6:72].

Amir Temurning oila a’zolari, saroy ayonlari Hazrati Qusam ibn Abbas maqbarasi yaqinida ko’milishni sharaf bilishib, o’zlariga naqshinkor, takrorlanmas obida-maqbaralar qurdirishdi. Bu obidalarni chet eldan-Erondan, Hindistondan, Shomdan kelgan ustalar hamda mahalliy me’morlar hamkorligida qurishadi va ta’mirlashadi. Amir Temurdan so’ng uning ishlarini nabirasi Ulug’bek mirzo davom ettiradi [9:35-36].

Shoxi Zinda majmuasi xalq orasida shunchalik mashhur va ilohiy qadamjo bo’lganki, 1901 yil iyul oyida bu majmuaning koshinlari ko’chirib olinishi to’g’risida Rossiya imperatorlik arxeologiya komissiyasi xulosasi bo’lishiga qaramasdan, mahalliy xalqning g’azabidan qo’rqib Samarqand harbiy gubernatori bu ishni qilmaslikni imperatordan iltimos qilib xat jo’natadi [20:1-6].

Temur davrida mashxur Ruxobod maqbarasi hamda Temuriylar sulolasiga ta’luqli bo’lgan Go’ri Amir maqbarasi qurilgan.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-9

Bir-biri yaqin masofada joylashgan bu maqbaralar bir o'qda joylashgan bo'lib, gumbazlari Samarqandning yam-yashil daraxtlari ustidan ko'rinish turadi.

Ko'rinishidan oddiy, ammo ulug'vor bu obidani Amir Temur XIV asrning 80-yillarida bunyod qildirgan. Ushbu maqbara to'rtburchak asosga ega bo'lib uning ustiga sakkiz qirrali yana bir qavat bino qilingan, uning ustida esa gumbaz barpo qilingandir. Ushbu yodgorlikning Ruhobod deb nomlanishini sababi, rivoyatlarga ko'ra maqbaraning gumbazi qurilayotgan paytda unga payg'ambarimiz Muhammad(sav)ning muborak sochlardan bir necha tolasi mis idishga solinib qo'yilgan. Shu sababli ushbu obida "Ruxobod", deb atala boshlangan. Manbalarga ko'ra, ushbu maqbaraning yonidagi masjid qadimda xalq orasida "Muyi muborak" deb nomlangan [15:106]. Ruxobod maqbarasiga Samarqandda yashagan ulug' zotlardan biri, tasavvufning ko'zga ko'ringan namoyandasini shayx Burxoniddin Sog'arjiy, u zotning o'gillari va avlodlari, dafn etilgan. Shayx Nuriddin Basirning izdoshi Burhoniddin Sog'arji 80-yillarda vafot etgan. Temur Shayx qabri ustiga maqbara qurishni buyuradi. Ruxobod - g'ishtdan qurilgan, kub, sharsimon bir gumbazli bino bo'lib, markazlashtirilgan tarkibga ega. Asosiy arkasimon fasad o'yilgan, sirlangan terakota plitalari bilan qoplangan [3:48].

1907 yil oktabr oyida bo'lган zilzila natijasida maqbarada mavjud yoriqlar ko'payib, shuvoqlari to'kilib tushgan [21:51].

Go'ri Amir maqbarasi jahonga mashhur va O'rta Osiyo me'morchiligining noyob asari sifatida e'tirof etiladi.

Maqbara qurilishi 1403 yilda boshlangan, Mirzo Ulug'bek davrida tugallangan bo'lib Amir Temur va temuriylar xilxonasiga aylantirilgan.

Mirzo Ulug'bek Samarqand taxtiga kelgach mamlakatda madaniyat va qurilish ishlarini rivojlantirib yuboradi. Mirzo Ulug'bek buyuk bobosiga hurmat yuzasidan mavjud sakkiz qirralik maqbarani temuriylar avlodlari dafn qilinadigan maqbaraga aylantiradi. Maqbara bitgach, Amir Temurning ma'naviy ustozi Mir Sayid Barakaning jasadi shu maqbaraga ko'chiriladi va Sohibqironning bosh tomoniga dafn etiladi. Maqbaraga Mironshoh Mirzo, Shoxruh Mirzo, Shayx Sayyid Umar, Mirzo Ulug'bek va Ulug'bekning go'dakligida vafot etgan ikki farzandi - Abdulloh va Abdurahmonlar ham dafn qilingan. Ulug'bek tomonidan binoning ichi yangidan bezatildi, maqbara sahdiga dahmalar qo'yilib, atrofi nafis marmar toshdan panjara bilan o'raldi. Maqbaraga 1424 yildan boshlab uning sharq tomoniga taqab qurilgan ko'p

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-9

gumbazli galereya orqali kiriladi. Maqbaraning g'arb va janub tomonlari yondosh qilib qurila boshlagan, lekin bitmay qolgan ulkan imoratlarning tiklanishi Mirzo Ulug'bek hukmronligining so'nggi yillariga tuo'g'ri kelishi taxmin qilinadi [15:26].

XVIII asrda eron shoxi Nodirshox Buxoro va Xiva xonlari ustidan g'alaba qozongach, Go'ri Amir maqbarasidagi nefrit qabrtosh va Bibixonim masjididagi quyma darvozalarni olib ketishni maqsad qiladi. Maqbaradagi qabrtoshni olish vaqtida uni to'rt bo'lakga bo'ladi. Ammo bu buyumlarni olib ketmasdan, Temur haqiga fotiha o'qib, ularni o'z joyiga qaytarishni buyuradi [13:29].

1880 yilda V.Radlov tomonidan "Srednayaya Zeravshanskaya dolina" nomli maqolasida ham maqbara to'g'risida qimmatli ma'lumotlar uchraydi [4:80].

XX asr boshlariga kelib maqbaraning axvoli ancha xarob axvolga kelib qoladi. Jumladan 1903 yil 14-iyunda nashr etilgan "Asxabat" gazetasida maqbaraning minorasi qulab tushganligi haqida habar nashr etilgan [18]. Bu xabarni aniqlash, va talofotlarni bartaraf etish uchun Samarqand harbiy gubernatori tomonidan ishchi guruh tuziladi [21:13-14].

Maqbarani tiklash va ta'mirlash uchun mustaqil O'zbekiston hukumati tomonidan katta mablag' ajratilib, 1994-1996 yillarda katta hajmdagi ishlar olib borildi.

Samarqand yodgorliklari orasida ko'pchilik tarixchi va arxeologlarni o'ziga jalgan, qurilishi ko'plab rivoyat va afsonalarga sababchi bo'lgan, o'zining ulug'verligi bilan ajralib turuvchi yodgorlik bu Bibixonim masjididir.

Bibixonim masjidining qurilishi to'g'risida o'sha davr tarixchilari anchagina ma'lumot qoldirishgan. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"sida Amir Temurni islom dini himoyachisi sifatida tasvirlab, "Allohga sajda qilinadigan yerlarni Allahga va oxiratga ishonadigan kishilar qurishi lozimligini, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) kimda kim Allah yo'liga masjid qursa, Allah uning uchun jannatda bir uy quradi" degan so'zlarini asoslab, "Amir Sohibqiron hazrat kofirlari munkirlarni yo'qotishdan va buzuqchilarga qarshi jihoddan forig' bo'lib, humoyun uzangilar u diyorlardan Samarqand tomon ravona bo'lgach, dorulmulk Samarqandda bir jome' masjadi qurib, bu xayrli ish bilan qudrat egasiga yaqinlikga erishish niyatini qat'iylashtirdi" [12:276].

Nizomiddin Shomiyning zamondoshi ibn Arabshox ham o'z asarida Bibixonim masjadi qurilishi haqida ma'lumot berib, Amir Temur Hindiston yurishida juda chiroyli,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-9

oq marmardan ishlov berilgan jome' ko'rganligi, bu jome' Amirga yoqib qolganligidan Samarqandda shunday jome' qurishni niyat qilganligini qayd ettirgan [8:314].

1403 yilda Temurbek xuzuriga kelgan Kastiliya va Leon elchisi Rui Gonsales de Klavixo, Bibixonim masjidi borasida, Kan'o Bibixonimning validasi sha'niga quriladigan masjid shaxardagi eng muhim bino bo'lishi lozimligini, podshox ishdan norozi bo'lib, devorlarni qaytadan qurishni buyurganligini, ishni tezlashtirish uchun qurilishning bir qismini shaxsan o'zi nazoratga olganligini o'z esdaliklariga muhrlagan [14:194].

Abu Toxirxo'janing "Samariya" asarida ham bu jome' to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. Hususan, bu masjid shaharning shimol tomonida Dari ohanin darvozasi yaqinida joylashganligi, Amir Temurning Hindistondan olingen o'jalarni to'qson bir filga yuklab olib keltirgani, xijriy 801 yilda masjid qurilishi boshlanganligi bayon qilingan [1:24].

O'rta Osiyo ruslar tomonidan bosib olingach, nafaqat bu hududning moddiy boyliklari, balkim madaniy va ma'naviy boyliklari ham imperiyada qiziqish uyg'otdi. Bunga quyida keltiriladigan bir qancha manbalarni misol qilishimiz mumkin.

I.Geyerning 1909-yilda nashrdan chiqgan "Turkestan" asrarida Samarqand tarixiy obidalari haqida ma'lumot berilib, Bibixonim masjidiga ham to'xtalib o'tadi. Geyer Bibixonim masjidi haqida yozar ekan bir vaqtlar bu inshoot uzunligi 44, eni 35 metr bo'lgan, to'liq marmor bilan qoplangan ulkan hovli bilan o'ralganligini aytib o'tgan. Geyer masjid qurilishini yoritar ekan sharq mualliflari Sharafiddin Ali Yazdiy, Abu Tohirxojalarning asarlariga ham murojaat qiladi. Ali Yazdiy va Tohirxo'jalarning yozishicha, masjid qurilishida Hindiston, Fors va Azarbajxonidan keltirilgan 200 nafar ustalar ishlagan, 500 nafar ishchi tog'lardan toshlarni qazib olib, yo'nib, naqsh solib, fillar yordamida qurilish joyiga yetkazishgan. Qurilishni nazorat qilish shahzodalar zimmasiga yuklatiladi, Temurning o'zi ham qulay fursat tug'ilganda shaxsan o'zi qurilishga borib turgan, uning bu tashriflari qurilish jarayonini tezlashtirgan [7:247].

Ya.P.Sankulskiy—"Putivoditel po Samarkandu s opisaniyem drevnih pamyatnikov" nomli risolasida yodgorlikni quyidagicha ta'riflaydi. —"Bibixonim masjidi Temur tomonidan suyukli rafiqasi, Qozon-Sultonxonning qizi, amir Musoning singlisi, xalq orasida "Mexribon" taxallusini olgan Saroy Mulk Xonim uchun 801 yilda (1399) qurdirilgan... Garchi xaroba holatda bo'lsa-da, masjid binosi Samarqanddag'i qadimiy me'morchilikning eng yaxshi namunasidir. Bino Yog'och panjara bilan

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-9

o'ralgan, panjaraning janubiy tomon oxirida masjidning asosiy binosi; shimoliy tomonda, masjidga ro'para asosiy peshtoq joylashgan" [16:35].

Binoning devorlari mustahkam g'ishtdan maxsus sement bilan terilgan. Devorning 2 arshga yaqin pastki qismi kulrang marmar bilan qoplangan. Masjidning tepe qismida hamma joyi moviy rang sirlangan koshinlar bilan qoplangan ulug' vor gumbaz turibdi. Masjidning ichi gips bilan suvalgan bo'lib, suvoq go'zal va murakkab naqshlar bilan o'yib bezatilgan.

Masjid hovlisida ulkan, uzunligi 31 arshshin bo'lgan, qavariq naqsh va arab yozuvlari bilan bezatilgan kulrang marmardan ishlangan lavx joylashgan.

1873-yilda Turkistonga sayohat qilgan amerikalik olim, diplomat va sayyoh Yujin Skayler Bibihonim masjidi ichida yirik marmar kitob qo'yishgan mo'ljallangan lavh borligini, uni to'qqizta qalin pastak ustunlar ushlab turishi va qadimdan unga yirik Kur'oni qo'yishganligi haqida ma'lumot berar ekan, musulmonlar ushbu moslamaning ostida barcha yo'l-yo'riqqa amal qilib yonboshlasa, umurtqa kasalligini davolashi mumkin deb ishonishganligini ham ta'kidlab o'tadi [17:190-191].

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Amir Temur hokimiyatga kelganidan keyin Samarcand va uning atrofidagi hududlarni obodonlashtirishga katta e'tibor qaratadi. O'zi zabit etgan diyorlardan eng yaxshi ustalar, me'morlar va quruvchilarni Samarcanddagi mashhur obidalarni bunyod etishga jalb qiladi. Samarcandan boshqa hududlarda ham Amir Temur va temuriylar tomonidan ko'plab inshootlar qurdirilgan, ulardan Turkistondagi Ahmad Yassaviy, Toshkentdagi Zangi ota, Shaxrisabzda Shamsiddin Kulol va boshqa inshootlarni misol keltirsak bo'ladi.

Vaqtlar o'tishi bilan bu yodgorliklar tabiiy ofatlar va turli shaxslar tomonidan vayronaga aylantirilgan. Manbalarda temuriylardan keyin kelgan qilgan hukmdorlar hamda rus imperiyasi tomonidan bu yodgorliklarni saqlab qolish, qayta tiklash uchun turli tadbirlar olib borilganligi aytildi.

O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin bu holat ijobiy tomoniga o'zgaradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1994 yildagi "Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash» haqidagi qaroriga binoan bu me'moriy yodgorliklarda ta'mirlash ishlari olib borilgan [19].

Asrlar o'tgan bo'sada Amir Temur va uning avlodlari bunyod etgan obidalar o'z mahobati va go'zalligi bilan jahon me'morchiligining asl durdonalaridan bo'lib turishibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абу Тохирхўжа Самарқандий. Самария. Тошкент. 1969 й.
2. Abu Tohirxo'ja. Samariya. Toshkent. Kamalak. 1991 у. 29-б
3. Axmedov B.A., Mukminova R.G., Pugachenkov G.A. Amir Temur tarixi. - Toshkent: Fan, 1999.- б. 48.
4. Ахмадуллин В. А. Деятельность советского государства и духовных управлений мусульман по организаций паломничества (1944—1965 гг.): анализ исторического опыта и значение для современности. — М.: Исламская книга, 2016. — С. 80.
5. Бартольд В.В. История Туркестана (конспект лекций). М.: Восточная литература, 1964. 1016 с.
6. Булатовой В.А., Шишкиной Г.В. Самарканд музей под открытым небом. Ташкент, 1986.- с. 72.
7. Гейер И.И. Туркестан. Ташкент. 1909.
8. Ибн Арабшох. Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. 1-китоб. Тошкент. “Меҳнат”. 1992 й.
9. K.Kattayev...Shoxi Zinda(risola).Toshkent. Fan. 2006. 35-36 б
10. Khasanova, F. (2023). History of The Formation of Baihua. Spast Abstracts, 2(02).
11. K.Kattayev, Q.Mamaramov.Go'ri Amir maqbarasi va qabrtoshlar tarixi. Samarqand 2007. 27-28 б
12. Лунин Б.В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. Т., 1985
13. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Тошкент. “Ўзбекистон”. 1996 й.
14. Pugachenkova G.A. Samarqand va Buxoroning qadimiy yodgorliklariga ko'ra. Moskva, 1968.- с. 49
15. Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга-Амир Темур саройига сайёҳат кундалиги. Тошкент. “Ўзбекистон” 2010 й
16. Samarqand yodgorliklari. Sh. Qulmatov, A. Berdimurodov.- Samarqand: Imom Buxoriy halqaro markazi, 2017. 26-bet
17. Санкулский Я.П. Путеводител по Самарканду с описанием древних памятников. 1916 й

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-9

18. Южин Скайлер.Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Гулжага саёҳат қайдлари. Тошкент, “Ўзбекистон” 2019 й.
19. “Asxabat” gazetasi 1903 у. 14-iyun, № 165
20. lex.uz/docs/2329020
21. O’z.R.M.A. Fond I-1, opis-11, 1902 – ish. 1-6 varaq.
22. O’z.R.M.A. Fond I-1, opis-13, 374 – ish. 51 varaq.
23. O‘zbekiston Milliy arxivi. Fond I-71 opis-1 delo-10
24. O‘zbekiston Milliy arxivi. Fond I-1 opis-11 delo-817.